

**BOLALAR HUQUQLARINI AMALDA HIMOYA QILISH, IJTIMOYIY HIMOYA VA TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING YANGI FARMONI**

*Agzamova Nargis Mirvaliyevna*  
*Termiz shahar 2 sonli bolalar musiqa*  
*va san'at maktabi direktori*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bolalar huquqlarini himoya qilish va ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan yangi farmoni tahlil qilinadi. Farmon bolalar masalalari bo'yicha milliy va hududiy komissiyalar faoliyatini samarali tashkil etish, bolalar huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, ularning ta'limi, sog'lig'i, axloqiy va ma'naviy rivojlanishiga oid chora-tadbirlarni ko'rib chiqadi. Maqolada shuningdek, komissiyalarning yangi tarkibi, ularning vazifalari, ta'lim jarayonidagi zo'ravonlikning oldini olish, inklyuziv ta'limni rivojlantirish hamda bolalar salomatligini saqlashga qaratilgan strategiyalar ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** Bolalar huquqlari, ijtimoiy himoya, ta'lim, sog'liqni saqlash, inklyuziv ta'lim, bolalar masalalari, Prezident farmoni, komissiyalar faoliyati, zo'ravonlikni oldini olish, bolalar xavfsizligi.

Har qanday jamiyatda komillikning eng asosiy ko'rsatkichi insonning ezgulikka, ijtimoiy baxt-saodatga, insonparvarlik g'oyalariga munosabatida hamda ularga asoslangan amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, insonparvarlikning ibtidosi bolajonlikdir. Shu ma'noda qonun bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish shakllarining eng maqbul usuli hisoblanadi.

Bola huquqlari xalqaro miqyosda himoya kilinadi. Bu, birinchi navbatda, bola huquqlari sohasidagi deklaratsiyalar, rezolyutsiyalar, konvensiyalar ishlab chiqish, bola huquqlari himoyasi bo'yicha maxsus nazorat organi tuzish, davlatlarning milliy qonunchiligini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish orqali amalga oshiriladi. BMTning Bolalar jamg'armasi – YUNISEF xalqaro ko'mak berish yo'nalishida o'z faoliyatini olib borib, bolalar muammosi bilan shug'ullanadi.

Murg'ak go'dakni suyub-erkalab ko'kka otsangiz, u qo'rqmaydi, aksincha, shodon qiyqirib, sizni ham quvonchiga sherik qiladi. U biladi: ishonchli qo'llar uni yiqilishiga hech qachon yo'l qo'ymaydi. Bu- buyuk ishonch. Ana shu ishonchning hech qachon so'nmasligi siz-u bizga, butun dunyo hamjamiyatiga juda katta mas'uliyat yuklaydi.1 Xalqaro huquqning jismoniy va aqliy jihatdan kamolotga yetmagan, shu jumladan, alohida e'tibor va g'amxo'rlikka muhtoj bolalarning huquq, imtiyoz va

kafolatlarini qamrab oluvchi “bola huquqlari” degan sohaning mavjudligini ta’kidlash lozim. Inson huquqlarining ajralmas qismi sanaluvchi ushbu alohida soha o’ziga xos taraqqiyot yo’lini bosib o’tdi.

Bola huquqlarini himoya qilish va kafolatlashni nazarda tutuvchi xalqaro huquqiy hujjatlar ro'yxatining boshida, shubhasiz, 1948 yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi turadi. Binobarin, ushbu Deklaratsiya «Hamma odamlar o'z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar» degan ulug'vor e'tirof bilan boshlanishi bejiz emas. O'z navbatida, 1959 yilda «Bola huquqlari deklaratsiyasi»ni qabul qilish orqali Birlashgan Millatlar Tashkiloti butun insoniyatni, ota-onalar, davlatlar hukumatlarini bolalarning huquq va erkinliklarini tan olishga, ularga rioya qilishga chaqirdi. Tavsiya mazmunidagi ushbu Deklaratsiya bola huquqlari sohasida ulkan o'zgarishlar davrini boshlab berdi. Shu ma'noda, «Bola huquqlari» to'g'risidagi konvensiya bola huquqlariga doir birinchi va asosiy xalqaro huquqiy hujjatdir. Bu Konvensiya BMT tomonidan 1989 yil 20 noyabrda qabul qilingan. Dunyodagi 196 ta davlat, shu jumladan, BMT a'zosi bo'lmagan Vatikan kabi davlatlar ham mazkur Konvensiya ishtirokchilari hisoblanadi. «Bola huquqlari» to'g'risidagi konvensiya bola huquqlariga doir milliy qonunchilikni rivojlantirishning mukammal andozasi sanaladi. Konvensiya mamlakatimizda bolalar huquqlariga oid milliy qonunchilikning mustahkam bazasini yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Konvensiya qoida va normalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish, shu orqali uning talablarini yanada keng ro'yobga chiqarish maqsadida 2008 yili O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida»gi Qonuni qabul qilindi. Dunyoning turli hududlarida siyosiy tanglik, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik uzoq vaqtlardan beri davom etayotgan bir vaziyatda u yerdagi bolalarning taqdiri, kelajagi haqida chuqurroq o'ylab, o'zimizga tasavvur qilib ko'radigan bo'lsak, jahonda bola huquqlari himoyasi masalasi qanchalik dolzarb ekani yana bir bor ayon bo'ladi. YUNICEF ma'lumotiga ko'ra, hozir ko'plab bolalar jismoniy va ruhiy tazyiq odatga aylangan oilalarda istiqomat qilishadi. Bundan tashqari, har o'ninchi bola kattalarning beshavqatligi qurboniga aylanmoqda. Odatda himoyaga, yordamga yoki alohida g'amxo'rlikka muhtoj ana shu tabaqa vakillari hayotini tashvishlardan holi etish, ular osmonini qora bulutlardan tozalash har doim ham muqaddas burch bo'lib kelgan. BMTning xalqaro bolalar jamg'armasi – YUNICEF va qator xalqaro hamda mintaqaviy tashkilotlar navqiron avlod turmush farovonligini yuksaltirish, ularni turli ofatlardan asrash, huquqlarini himoya qilishga qaratilgan sa'y-harakatlarni amalga oshirishda bosh-qosh bo'lmoqda.

Bola huquqlarini taminlashda muhim ahamiyatga ega hujjatlardan bir bu “Bola huquqlari to’g’risidagi konvensiya” hisoblanadi. Bola huquqlari to’g’risida konvensiya — bolalar huquqi to’g’risidagi xalqaro huquq normalari kuchiga ega bo’lgan hamda kelajakka qaratilgan eng to’la va birinchi hujjat. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan

1989 yil 20 noyabrda bir ovozdan qabul qilingan. Konvensiya 1959 yilda qabul qilingan Bola huquqlari deklaratsiyasi qoidalarini rivojlantiradi. Deklaratsiya „Insoniyat o‘zida mavjud bo‘lgan eng yaxshi narsalarning hammasini bolalarga berishga majbur“ deb e‘lon qilgan edi. Konvensiya esa ushbu Deklaratsiya va boshqa xalqaro hujjatlardagi bolalar huquqlari to‘g‘risidagi qonunlarni o‘zida mujassamlashtirgan. Bola huquqlari to‘g‘risida konvensiya dunyoning barcha mintaqalaridagi xalqlar uchun teng ahamiyatga ega, asosiy maqsadi bolalar manfaatlarini mumkin qadar himoya qilishdan iborat. U muqaddima, 3 qism, 54 moddadan iborat.

BMT va boshqa uning ichki tashkilotlari tomonidan bolalar huquqini ta‘minlash borasida ko‘plab ishlar olib borilgan, qonun hujjatlari imzolangan. Bulardan tashqari, butun dunyo bolalari uchun bir kunni bayram sanasiga aylantirishga doir hujjatlar ham imzolangan, ya‘ni 1 iyun “Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni” bayrami etib belgilangan. Jahonning aksariyat mamlakatlarida yozning ilk kuni bolajonlar uchun katta bayram hisoblanadi. Bu yil mazkur sana butun dunyoda 73 marta nishonlanildi.

Hozirgi kunda dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida bolalar huquqlari bo‘yicha ombudsmanlar yoki bolalar masalalari bo‘yicha vakillar mavjud bo‘lib, ularning rasmiy, davlat vazifasi bolalar huquqlari bo‘yicha alohida fuqarolar tomonidan bildirilgan shikoyatlarni tekshirish va ko‘rib chiqish orqali jamoatchilik manfaatlarini ifodalashdan iborat.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi “Oila, bolalar va yoshlar” deb nomlangan. Hususan, Konstitutsiyaning 78-moddasida quyidagicha norma o‘rin olgan: “Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat‘i nazar, qonun oldida tengdirlar. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to‘laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir. Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi”. So‘nggi yillarda O‘zbekiston bolalar manfaatlariga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirar ekan, “hech bir bola e‘tibordan chetda qolmaydi” degan tamoyilga amal qilmoqda.

Mamlakatimizda bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish hamda sohaning institutsional va huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida bolalarning sog‘lig‘i, xavfsizligi, to‘liq jismoniy, aqliy va ma‘naviy rivojlanishini, iqtidori va iste‘dodini yuzaga chiqarishni ta‘minlovchi kafolatlar sezilarli darajada kuchaytirildi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari bo‘yicha vakili (Bolalar ombudsmani) instituti ta‘sis etildi, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga g‘amxo‘rlik qilish, ularning ustuvor ravishda oila muhitida o‘sib-ulg‘ayishi uchun sharoitlar

yaratishga qaratilgan yangi tizim joriy etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 02.12.2024 yildagi “Bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalar faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-201-sonli Farmoni qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bolalar masalalari bo‘yicha farmoni bolalar huquqlarini himoya qilish va ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan muhim huquqiy hujjatdir. Farmon doirasida bolalar huquqlarini amalda himoya qilish, ularning sog‘ligi, ta‘limi va tarbiyasi bilan bog‘liq masalalar yanada jiddiy ko‘rib chiqilishi belgilangan. Ayniqsa, bolalarning oila muhitida o‘sib-ulg‘ayishi uchun sharoit yaratish va ularni ijtimoiy himoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Farmonda bolalar huquqlarini ta‘minlashga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda idoralararo hamkorlikni rivojlantirish zarurati ko‘rsatilgan. Komissiyalar o‘z faoliyatida bolalar sog‘lig‘ini saqlash, ta‘lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, ularning axloqiy va ma‘naviy rivojlanishiga alohida e‘tibor qaratishi lozim. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni oldini olish, spirtli ichimliklar va giyohvandlik vositalarini iste‘mol qilishni erta bosqichda aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha ham chora-tadbirlar belgilangan.

Farmon shuningdek, bolalar masalalari bo‘yicha milliy va hududiy komissiyalarning tarkibini yangilashni, ularning faoliyatini samarali tashkil etishni ko‘zda tutadi. Komissiyalar muntazam ravishda yig‘ilishlar o‘tkazib, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini baholashi lozim. Pedagoglar va tarbiyachilar bilan bog‘liq masalalarda, ularning bolalar bilan ishlashdagi me‘yorlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan cheklovlar va talablar ham kiritiladi.

Oliy Majlisning Bola huquqlari bo‘yicha vakili va Ijtimoiy himoya milliy agentligi farmon ijrosini samarali amalga oshirishga mas‘ul etilgan. Bunday keng qamrovli chora-tadbirlar bolalar huquqlari himoyasini mustahkamlash va bolalar uchun xavfsiz va foydali muhit yaratishga yordam beradi. Bu farmon mamlakatda bolalar masalalariga yanada jiddiy e‘tibor qaratilishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. 02.12.2024-yildagi PQ-112 -sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori 1-15 bet
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31-maydagi 3022-sonli qarori
3. Turdiyeva Sultonabegim Bitiruv malakaviy ishi Internet web sahifasi Xalq cholg‘ulari orkestri <https://uz.m.wikipedia.org>
4. Ozoda Toshmatova F. Abdurahimova, U. Yunusov «Orkestr sinfi» G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-manbaa ijodiy uyi Toshkent – 2016
5. Mannopov, S., Karimov, A., Qurbonova, B., & Dilobar, J. (2022, February). EMERGENCE Conferences (pp. 49-52).